

MAQOM XONANDALIGI TA'LIMIDA "OVOZNI YO'LGA QO'YISH" FANI VA REPERTUAR MASALALARI



Suhrob Jumayev

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti
tayanch doktoranti
suhrobjumayev50@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada maqom xonandaligi ta'limida "Ovozni yo'lga qo'yish" fani va repertuar masalalari ko'rib chiqiladi. So'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar haqida so'z boradi. Shu bilan birga mutaxassislik fanlari bilan bog'liq holatda darslarni tashkil etish borasida ma'lumot keltirilgan. Maqolada bugungi kundagi "Ustoz-shogird an'anasi" ham ma'lum bir darajada yoritilgan.

Kalit so'zlar: Ovozni yo'lga qo'yish, an'anaviy xonandalik, maqom xonandaligi, ijro texnikasi, ijro dasturi, repertuar, ustoz-shogird an'anasi.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы дисциплины "Настройка голоса" и репертуара в преподавании макомного пения. Речь идет о реформах, осуществляемых в последние годы. При этом представлена информация об организации занятий, связанных со специальными дисциплинами. В статье также в определенной степени освещается сегодняшняя «традиция учитель-ученик».

Ключевые слова: Настройка голоса, традиционное пение, макомное пение, исполнительская техника, исполнительская программа, репертуар, традиция наставник-ученик.

Abstract: The article addresses the issues of "Voice Tuning" discipline and repertoire in teaching maqom singing. This refers to the reforms being implemented in recent years. At the same time, information is provided on the organization of classes related to special disciplines. The article also addresses today's "teacher-student tradition" to a certain extent.

Keywords: Voice tuning, traditional singing, maqom singing, performance technique, performance program, repertoire, mentor-student tradition.

"Ovozni yo'lga qo'yish" fani an'anaviy xonandalikdagi ixtisoslik fanlari orasida eng ahamiyatlilaridan biri hisoblanadi. Uni o'qitishda xonandalarning ovozini to'g'ri yo'lga qo'yish va sozlash bilan birgalikda ovozni chiniqtirish, ovozni tobora yaxshilanishi bo'yicha zarur ko'rsatmalar beriladi. Diafragma, nafas va ovoz apparati faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yish borasida zamonaviy pedagogikadagi mavjud o'qitish uslublari asosida dars olib boriladi. "Ovozni yo'lga qo'yish" fani bo'yicha ta'lim berish har bir yosh xonandani kamolotga yetkazishda, ularning o'z ijrochilik mahorati va san'atini ko'p sonli tinglovchilarga to'la yetkazib bera olishlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Odatda akademik xonandalikda ovoz qizdirish mashqlari sifatida artikulyatsiya, stakkato, legato mashqlaridan foydalanish an'anaga aylangan. Bu mashqlar nafaqat akademik xonandalikda, shu bilan birgalikda estrada va an'anaviy xonandalikda ham muntazam qo'llanilib kelinadi. Bu

jarayon zamonaviy yondashuvga mos keladi. Natijada turdosh yoʻnalishlardagi ijro texnikasi va yutuqlar oʻzaro tajriba almashish asosida mutaxassis va talabalarning mukammallikka erishishlari uchun xizmat qiladi. “Ovoz mashqlarining milliy sozlar joʻrligida amalga oshirilgani maqsadga muvofiqdir. Biroq, turli shakl va darajadagi gʻarbona musiqalarning keng isteʼmolga aylanib borayotganini inobatga olib, Gʻarb vokal tajribasidan kelib chiqib, ularni dastlabki jarayonda fortepiano joʻrligida amalga oshirish ham foydadan xoli emas”. Odatda “Ovozni yoʻlga qoʻyish” fani va mashgʻuloti turdosh mutaxassisliklarda fortepiano yordamida oʻtiladi. Ayrim holatlardagina milliy cholgʻu joʻrligida olib boriladi. Ammo anʼanaviy xonandalikda baʼzi nozik masalalar borki, ularni hisobga olish lozimdir. Lokallik, asarlarning xilma-xilligi, ijro uslublarining koʻpligi, ayniqsa, mikroxromatikaga bogʻliq masalalar jihatidan bu yoʻnalish ancha murakkabdir. Shuning uchun ham bu yoʻnalishga mos tarzda talabalarning ovozini yoʻlga qoʻyish va sozlash ishlarini olib borish nisbatan mashaqqatli jarayonni oʻz ichiga oladi.

Soʻnggi yillarda Yunus Rajabiy nomidagi Oʻzbek milliy musiqa sanʼati institutida taʼlim sifatini oshirish borasida bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Shulardan biri “Maqom xonandaligi” boʻyicha tahsil olayotgan talabalarning ijro dasturlarini mukammallashtirishdir. Maʼlumki, ushbu yoʻnalishda talabalar “Maqom yakka xonandaligi”dan tashqari mutaxassislikka yondosh fanlar sifatida oʻqitiladigan “Ansaml sinfi (anʼanaviy xonandalik)”, “Cholgʻu sozlarini oʻrganish” va “Ovozni yoʻlga qoʻyish” fanlaridan ham tahsil oladilar. Soʻnggi yillarda amalga oshirilgan islohot esa aynan shu fanlar dasturini oʻzaro bogʻliq holda tashkillashtirishni oʻz ichiga oldi. Madaniyat va sanʼat taʼlimi tashkilotlarida taʼlim sifati va samaradorligini oshirishga toʻlaqonli mos keluvchi ushbu islohot keyingi yillarda oʻz samarasini bera boshlaydi, chunki yuqorida aytilganidek anʼanaviy xonandalik(Maqom xonandaligi)da ovozni yoʻlga qoʻyish fanidagi masalalar ushbu islohot natijasida maʼlum bir darajada oʻz yechimini topdi. Bunda ijro dasturlariga mos holatda ovozni sozlash maqsad qilinadi.

Ishlab chiqilgan dastur boʻyicha talabalarga 1-modulda ovoz apparati bilan bogʻliq dastlabki mashgʻulotlar oʻtiladi. Asosiy mavzular esa quyidagilar:

“Ovozni yoʻlga qoʻyish” fanining maqsad va vazifalari tushuntirish. Talabaning ovoz diapazonini aniqlash.

Xonandaning nafas olish masalasi va uning ustida ishlash.

Unli va undosh harflar uchun mashqlar bajarish.

Har bir harf uchun ogʻiz ochishni shakllantirish borasida mashqlarni kuylash.

Bosh va pastki rezonatorlarni toʻgʻri ishlatish koʻnikmalarini shakllantirish.

2-modulda esa ovoz imkoniyati va diapazonini rivojlantiruvchi intensiv mashqlar bilan birgalikda Fargʻona-Toshkent maqom yoʻllarida ovozni sozlash mavzulari asosida darslar olib boriladi.

Pastki notalarda erkin va tabiiy kuylashni shakllantirish.

Jarangdor va jarangsiz ovozlarni alohida mashqlarni amaliy bajarish.

Fargʻona-Toshkent maqom yoʻllarida ovozni sozlash mashqlari. Bayotlar.

Fargʻona-Toshkent maqom yoʻllarida ovozni sozlash mashqlari. Dugoh Xusayniylar.

Fargʻona-Toshkent maqom yoʻllarida ovozni sozlash mashqlari. Qalandarlar.

3-modul: Mutaxassislik asarlari asosida ovoz mashqlarini olib borish. Asosiy mavzular:

Ovozda mutatsiya davri boʻyicha maʼlumotga ega boʻlish.

Xonanda diapazonining yuqori va pastki pogʻonalarini ixtisoslik fanlari boʻyicha belgilangan ijro dasturlari yordamida rivojlantirish.

Xonandalar uchun maqom ijrochiligi borasida maxsus mashqlar.

Avjlarda (Turk va Zebo pari) tashqi koʻrinishini yaxshilash uchun mashqlar.

Maqom ijrochiligi uchun xonandani tayyorlovchi mashqlar.

4-modul: Ovoz texnikasi ustida ishlash. Buxoro Shashmaqomi ijrosiga ovoz imkoniyatini mutanosiblashtirish. Asosiy mavzular:

Asar ijrosi mobaynida “legato”ning o‘rni.

Diafragma orqali ishlash.

“Stakkato” yordamida ovoz imkoniyatini kengaytirish.

Saraxborlar asosida ovoz mashqlarini olib borish.

Shashmaqomning ikkinchi guruh sho‘balari asosida ovoz mashqlarini tashkil etish.

5-modul: Ijrochilikda ovoz diapazonining o‘rni va uni rivojlantirish. Asosiy mavzular:

Ishkami, guligi, bindigi to‘g‘risida nazariy ma‘lumot berish.

Yuqori pardalarda ovoz ishlatish mahorati.

Talabalarining ixtisoslik fanlari bo‘yicha belgilangan ijro dasturlari asosida mashqlar bajarishda nafas va ovoz apparatining o‘rni.

Talaba ovozidagi premar zona haqida tushuncha.

Ovoz imkoniyatini mukammallashtirish va bundagi ahamiyatli jihatlar.

6-modul: Xorazm olti yarim maqomi asosida mashg‘ulotlar olib borish. Asosiy mavzular:

Mashq jarayonidagi ovoz ishlatish mahoratidan asar ijrosi vaqtida unumli foydalanish.

Melizmatika va ijrodagi bezaklar bo‘yicha tavsiyalar.

Xorazm olti yarim maqomi ijrosiga tayyorgarlik va ushbu yo‘nalishda ovoz ishlatish mahoratini shakllantirish.

Feruzlar asosida ovoz mashqi olib borish.

Suvoralar asosida ovoz mashqi olib borish.

Shu tariqa “Ovozni yo‘lga qo‘yish” fani mavzulari sezilarli darajada mukammallashtiriladi. Bu esa o‘z navbatida talabaning malakaviy darajasiga ijobiy ta‘sir qiladi. Yondosh fanlar hisoblanmish “Maqom yakka xonandaligi” (asosiy fan), “Ansaml sinfi (an‘anaviy xonandalik)”, “Cholg‘u sozlarini o‘rganish” fanlari ham aynan ushbu dasturga muvofiq holda tashkil etilishi ko‘zda tutiladi. Repertuarni o‘zlashtirish esa “Maqom yakka xonandaligi” fanida izchil amalga oshiriladi.

Bugungi kunda “Ustoz-shogird an‘anasi” ham zamonga mos holatda o‘zgacha ko‘rinish kasb etmoqda. To‘rt yillik ta‘lim katta muddat bo‘lsa ham ustoz va shogird uchun juda oz hisoblanadi. Ta‘limdan so‘ng ham doimiy holatda o‘z ustozlari bilan kasbiy va ijodiy hamkorlikni davom ettirish zamon talabidir. Talabalar mustaqil holatda ham o‘z malakalarini muntazam oshirib borishlari lozim. Ta‘lim davri (bakalavriat yoki boshqa) yakunlangandan so‘ng har bir “Maqom xonandaligi” mutaxassisi tizimli ravishda o‘z repertuarini yanada boyitib borishi shartdir. Bunda hamkorlik masalasi katta o‘rin tutadi. “Yakka xonanda (ashula ijrochisi) uch mutaxassis bilan o‘zaro aloqada ijro mahoratini hosil qiladi: 1) ta‘lim jarayonida ustoz bilan; 2) ashula matni muallifi bilan; 3) bastakor (kompozitor) bilan”. Shu tariqa oliygohda olingan fundamental bilim va ko‘nikmalar asosida yangi san‘at asarlarini yaratish, borlarini mukammal ijro qilish “Maqom xonandaligi” mutaxassisi oldida turgan vazifalardandir.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, repertuar masalasi doimo xonanda uchun muhim bo‘lib qoladi. Tinglovchi va tomoshabinlar auditoriyasi qarab munosib asarlar ijro qilolgan xonanda o‘z kasbining mohir egasi sifatida shuhrat qozonadi.

Foydalangan adabiyot ro‘yxati:

1. Акбаров И. Музыка луғати. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987.
2. Rasulov O'. Yakkaxon qo'shiqchilik. – Toshkent: "Barkamol fayz media" nashriyoti, 2017.
3. Yo'lchiyeva M. An'anaviy yakka xonandalik. – Toshkent: "Musiqqa" nashriyoti, 2018.